


Korxonalar va tashkilotlarning demografiyasi

1. Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar holati.

Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sharoitida olib borilgan islohotlar natijasida, 2018 yil 1 yanvar holatiga, viloyat bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 22494 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 7,0 foizga oshganligini ko'rsatdi. Ushbu korxonalarining ya'ni 7177 tasi Samarqand va 734 tasi Kattaqo'rg'on shahriga, 2012 tasi Urgut tumaniga, 1789 tasi Pastdarg'om, 1502 tasi Samarqand, 1194 tasi Payariq, 1099 tasi Ishtixon, 1049 tasi Kattaqo'rg'on, 871 tasi Narpay, 850 tasi Bulung'ur, 877 tasi Tayloq, 853 tasi Oqdaryo, 713 tasi Jomboy, 654 tasi Nurobod, 539 tasi Qo'shrabot, 581 tasi Paxtachi tumanlariga to'g'ri keladi.

1-rasm.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni dinamikasi




2. Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar faolligi.

Shu bilan birga, 2018 yil 1 yanvar holatiga kelib, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 21061 taga yetdi.


2-rasm.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Mazkur ko'rsatkich viloyat bo'yicha 2006 yilga nisbatan 1,6 marta, Urgut tumanida 2,6 marta, Qo'shrabot tumanida 2,5 marta, Ishtixon tumanida 2,4 marta, Payariq, Oqdaryo, tumanlarida 2,2 marta, Nurobod, Samarqand, Narpay, Pastdarg'om tumanlarida 2,0 marta, Tayloq, Kattaqo'rg'on, Bulung'ur tumanlarida 1,8 marta, Paxtachi tumanida 1,6 marta, Jomboy tumani va Kattaqo'rg'on shahrida 1,5 marta hamda Samarqand shahrida esa 1,2 martaga o'sgan.

**2018 yil 1 yanvar holatiga
Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar sonining o'sish sur'ati**



2006 yilga nisbatan o'sishi, marta


Shuningdek, hududlar kesimida esa, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi, ya'ni 32,1 foizi Samarqand shahriga, 9,3 foizi Urgut, 7,4 foizi Pastdarg'om, 6,6 foizi Samarqand, 5,2 foizi Payariq, 4,8 foizi Ishtixon, 4,6 foizi Kattaqo'rg'on, 4,0 foizi Tayloq, 3,9 foizi Narpay, 3,8 foizi Oqdaryo, 3,7 foizi Bulung'ur, 3,4 foizi Kattaqo'rg'on shahriga, 3,1 foizi Jomboy, 2,7 foizi Nurobod, 2,6 foizi Paxtachi va 2,5 foizi Qo'shrabot tumanlariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar demografiyasi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

| Shahar va tumanlar nomi | 01.01.2006 y. | 01.01.2018 y. | o'sishi, marta | hududlar ulushi, % | |
|---------------------------|---------------|---------------|----------------|--------------------|---------------|
| | | | | 01.01.2006 y. | 01.01.2018 y. |
| Samarqand viloyati | 12970 | 21061 | 1,6 | 100 | 100 |
| Samarqand sh | 5840 | 6770 | 1,2 | 45,0 | 32,1 |
| Kattaqo'rg'on sh | 485 | 709 | 1,5 | 3,7 | 3,4 |
| Tumanlar | | | | | |
| Oqdaryo | 366 | 796 | 2,2 | 2,8 | 3,8 |
| Bulung'ur | 434 | 783 | 1,8 | 3,3 | 3,7 |
| Jomboy | 427 | 658 | 1,5 | 3,3 | 3,1 |
| Ishtixon | 434 | 1020 | 2,4 | 3,3 | 4,8 |
| Kattaqo'rg'on | 555 | 978 | 1,8 | 4,3 | 4,6 |
| Qo'shrabot | 204 | 517 | 2,5 | 1,6 | 2,5 |
| Narpay | 417 | 831 | 2,0 | 3,2 | 3,9 |
| Payariq | 504 | 1104 | 2,2 | 3,9 | 5,2 |
| Pastdarg'om | 778 | 1567 | 2,0 | 6,0 | 7,4 |
| Paxtachi | 345 | 550 | 1,6 | 2,7 | 2,6 |
| Samarqand | 680 | 1390 | 2,0 | 5,2 | 6,6 |
| Nurobod | 293 | 579 | 2,0 | 2,3 | 2,7 |
| Urgut | 747 | 1963 | 2,6 | 5,8 | 9,3 |
| Tayloq | 461 | 846 | 1,8 | 3,6 | 4,0 |

Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida 2018 yil 1 yanvar holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan 21061 mingta yuridik shaxsning (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 4737 tasi savdo, 3713 tasi sanoat, 1667 tasi qurilish, 1440 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1207 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 703 tasi tashish va saqlash, 465 tasi sog'liqni saqlash, 391 tasi axborot va aloqa va 6738 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslarning
iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha soni
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)**




2018 yil 1 yanvar holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan yirik tijorat korxonalarini soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 135 tani tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida mazkur korxonalar va tashkilotlarning 34 tasi sanoat, 32 tasi savdo, 23 tasi tashish va saqlash, 16 tasi qurilish, 11 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 1 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 14 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan yirik tijorat korxonalarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi soni

01.01.2018 yil holatiga



3. Xorijiy investitsiyalar va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalarni rivojlantirish

2018 yil 1 yanvar holatiga Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registriga asosan viloyat bo'yicha ro'yxatdan o'tgan xorijiy investitsiya va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar soni 291 tani, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari 280 tani tashkil etdi.

Xorijiy investitsiyalar va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar


01.01.2018 yil holatiga

| Shahar va tumanlar nomi | | Ro'yxatdan o'tgan | Faoliyat ko'rsatayotgan | Faoliyat ko'rsatmayotgan | Faoliyat ko'rsatmayotganlar ulushi, % | 2017 y yanvar-dekabr tashkil etilgan | 2017 y yanvar-dekabr tugatilgan |
|-------------------------------------|--|-------------------|-------------------------|--------------------------|---------------------------------------|--------------------------------------|---------------------------------|
| Samarqand viloyati | | 291 | 280 | 11 | 3,8 | 56 | 21 |
| 1 | Samarqand sh. | 146 | 142 | 4 | 2,7 | 27 | 13 |
| 2 | Kattaqo'rg'on sh. | 8 | 8 | | | 3 | |
| tumanlar: | | | | | | | |
| 3 | Oqdaryo | 7 | 7 | | | 1 | |
| 4 | Bulung'ur | 7 | 7 | | | 2 | 1 |
| 5 | Jomboy | 25 | 24 | 1 | 4,0 | 4 | 1 |
| 6 | Ishtixon | 3 | 3 | | | 1 | 1 |
| 7 | Kattaqo'rg'on | 2 | 2 | | | | |
| 8 | Qo'shrabot | 1 | 1 | | | 1 | |
| 9 | Narpay | 4 | 4 | | | | |
| 10 | Payariq | 2 | 2 | | | 1 | |
| 11 | Pastdarg'om | 12 | 12 | | | 6 | 1 |
| 12 | Paxtachi | 3 | 3 | | | | |
| 13 | Samarqand | 19 | 14 | 5 | 26,3 | 1 | 3 |
| 14 | Nurobod | 5 | 5 | | | 2 | |
| 15 | Urgut | 36 | 36 | | | 4 | 1 |
| 16 | Tayloq | 11 | 10 | 1 | 9,1 | 3 | |
| Iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha | | | | | | | |
| 1 | Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 17 | 15 | 2 | 11,8 | 8 | 1 |
| 2 | Sanoat | 195 | 191 | 4 | 2,1 | 38 | 12 |
| 3 | Qurilish | 3 | 3 | | | 2 | 2 |
| 4 | Savdo | 41 | 36 | 5 | 12,2 | 4 | 3 |
| 5 | Tashish va saqlash | 5 | 5 | | | | 1 |
| 6 | Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 6 | 6 | | | 1 | |
| 7 | Axborot va aloqa | 3 | 3 | | | | 1 |
| 8 | Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 4 | 4 | | | | 1 |
| 7 | Boshqa turlar | 17 | 17 | | | 3 | |

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy investitsiya va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi 191 tasi sanoatda, 36 tasi savdo, 15 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 5 tasi tashish va saqlashda, 4 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 3 tasi qurilish, axborot va aloqada hamda 17 tasi boshqa turdagi sohalariga to'g'ri keladi.

6-rasm.

2018 yil 1 yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan Xorijiy investitsiyalar va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha soni




2017 yil yanvar-dekabr viloyatda 56 ta xorijiy investitsiya va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar tashkil etilgan.

Asosiy qismi Samarqand shahrida 27 ta, Pastdarg'om tumanida 6 ta, Urgut, Jomboy tumanida 4 ta, Tayloq tumani va Kattaqo'rg'on shahrida 3 ta, Nurobod, Bulung'ur tumanida 2 ta, Oqdaryo, Ishtixon, Qo'shrabot, Payariq, Samarqand tumanlarida 1 tani tashkil etdi.


2018 yil 1 yanvar holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan xorij kapitali ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi 142 tasi Samarqand shahrida, 36 tasi Urgutda, 24 tasi Jomboyda, 14 tasi Samarqandda, 12 tasi Pastdarg'omda va 10 tasi Tayloq tumanlariga tug'ri keladi.

2018 yil 1 yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan Xorijiy investitsiyalar va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar tuman (shaharlar) kesimida soni




Samarqand viloyatida jami faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi 280 ta korxonalarining 78,5 foizi (220 ta) uzoq xorijiy davlatlar hissasiga, 21,5 foizi (60 ta) esa Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (keying o'rinlarda MDH davlatlari) davlatlari hissasiga to'g'ri keladi. Jumladan, MDH davlatlari ichida Rossiya Federatsiya kapitali ishtirokida faoliyat yuritayotgan xorijiy korxonalar 41 tani, Latviya Respublikasi 7 tani, Qozog'iston Respublikasi 5 tani, Ukraina 2 tani, Belorussiya Respublikasi 2 tani va qolgan davlatlar 3 tani tashkil etadi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
MDH davlatlari kesimidagi soni, birlikda**




Uzoq davlatlar kapitali ishtirokidagi 220 ta, xorijiy korxonalarining 51 tasi Xitoy Xalq Respublikasi, 43 tasi Turkiya Respublikasi, 21 tasi Buyuk Britaniya, 14 Birlashgan Arab Amirliklari, 11 tasi AQSH, 10 tasi Eron Islom Respublikasi, 10 tasi Germaniya Federativ Respublikasi, 7 tasi Chexiya Respublikasi, 6 tasi Avstirya Respublikasi va 47 tasi boshqa davlatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning uzoq davlatlar kesimidagi soni, birlikda



4. Oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi

Mamlakatimizda “Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida”gi Qonunning qabul qilinishi, tadbirkorlikning rivojlanishida yangi tashkiliy-huquqiy shaklni kirib kelishiga zamin yaratdi. Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2014 yilda 168 ta, 2015 yilda 355 ta, 2016 yilda 584 ta, 2017 yilda 946 ta, 2018 yil 1 yanvar holatiga esa 1602 taga yetdi. Bu esa, faqatgina so'ngi yilda ularning 69,3 foizga o'sganligini ko'rsatdi.



Oilaviy korxonalarining asosiy qismi, ya'ni 547 tasi Samarqand shahriga, 175 tasi Ishtixon, 155 tasi Pastdarg'om, 150 tasi Samarqand tumani, 117 tasi Urgut, 110 tasi Payariq, 92 tasi Tayloq, 50 tasi Oqdaryo, 44 tasi Jomboy, 44 tasi Narpay, 37 tasi Bulung'ur, 25 tasi Kattaqo'rg'on, 21 tasi Nurobod, 14 tasi Qo'shrabot, 10 tasi Kattaqo'rg'on shahriga va 11 tasi Paxtachi tumanlariga to'g'ri keladi.

5. Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining rivojlanishi

2018 yil 1 yanvar holatiga Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registriga asosan viloyat bo'yicha ro'yxatdan o'tgan kichik tadbirkorlik (biznes) sub'yektlari (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) soni 17261 tani, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari 16005 tani yoki 92,7 foizni tashkil etdi. Shundan faoliyat ko'rsatmayotganlari 1256 ta. 2017 yil yanvar-dekabrda 3259 ta tashkil etilgan va 1481 ta tugatilgan.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining hududlar bo'yicha soni *)
(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)

01.01.2018 yil holatiga


| Shahar va tumanlar nomi | Ro'yxatdan o'tgan | Faoliyat ko'rsatayotgan | Faoliyat ko'rsatmayotgan | Faoliyat ko'rsatmay otganlar ulushi, % | 2017 y yanvar-dekabr tashkil etilgan | 2017 y yanvar-dekabr tugatilgan |
|---|-------------------|-------------------------|--------------------------|--|--------------------------------------|---------------------------------|
| Samarqand viloyati | 17261 | 16005 | 1256 | 7,3 | 3259 | 1481 |
| Samarqand sh | 5926 | 5597 | 329 | 5,6 | 1059 | 414 |
| Kattaqo'rg'on sh | 571 | 548 | 23 | 4,0 | 119 | 53 |
| tumanlar: | | | | | | |
| Oqdaryo | 643 | 591 | 52 | 8,1 | 116 | 40 |
| Bulung'ur | 616 | 556 | 60 | 9,7 | 136 | 120 |
| Jomboy | 510 | 465 | 45 | 8,8 | 99 | 103 |
| Ishtixon | 828 | 759 | 69 | 8,3 | 181 | 89 |
| Kattaqo'rg'on | 728 | 666 | 62 | 8,5 | 130 | 98 |
| Qo'shrobot | 335 | 315 | 20 | 6,0 | 40 | 37 |
| Narpay | 594 | 559 | 35 | 5,9 | 93 | 40 |
| Payariq | 893 | 809 | 84 | 9,4 | 186 | 115 |
| Pastdarg'om | 1349 | 1133 | 216 | 16,0 | 244 | 112 |
| Paxtachi | 351 | 332 | 19 | 5,4 | 60 | 21 |
| Samarqand | 1218 | 1120 | 98 | 8,0 | 272 | 134 |
| Nurobod | 460 | 389 | 71 | 15,4 | 76 | 39 |
| Urgut | 1600 | 1557 | 43 | 2,7 | 326 | 24 |
| Tayloq | 639 | 609 | 30 | 4,7 | 122 | 42 |
| Iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha | | | | | | |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 1568 | 1394 | 174 | 11,1 | 459 | 139 |
| Sanoat | 3908 | 3679 | 229 | 5,9 | 893 | 289 |
| Qurilish | 1836 | 1650 | 186 | 10,1 | 337 | 213 |
| Savdo | 5102 | 4704 | 398 | 7,8 | 680 | 473 |
| Tashish va saqlash | 714 | 678 | 36 | 5,0 | 116 | 41 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 1258 | 1191 | 67 | 5,3 | 361 | 115 |
| Axborot va aloqa | 405 | 378 | 27 | 6,7 | 82 | 46 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 368 | 362 | 6 | 1,6 | 94 | 10 |
| Boshqa sohalarda | 2102 | 1969 | 133 | 6,3 | 237 | 155 |

*) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.08.2016 yil 275-sonli qaroriga asosan

2018 yil 1 yanvar holatiga kelib, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlari soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 16005 tani tashkil etgan. Ushbu kichik tadbirkorlik sub'yektlarining asosiy qismi, 5597 tasi Samarqand shahriga, 1557 tasi Urgut, 1133 tasi Pastdarg'om va 1120 tasi Samarqand tumanlariga to'g'ri keladi.

11-rasm.

2018 yil 1 yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining tuman (shaharlar) kesimida soni



2018 yil 1 yanvar holatiga viloyatda Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida mazkur kichik tadbirkorlik sub'yektlarining 4704 tasi savdo, 3679 tasi sanoat, 1650 tasi qurilish, 1394 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1191 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 678 tasi tashish va saqlash, 378 tasi axborot va aloqa, 362 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish hamda 1969 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

2018 yil 1 yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha soni

